

HIKMATLI SO‘ZLAR – FILOLOGIK TADQIQOTNING OBYEKTI SIFATIDA

Xudoyberdiyeva Oydin Ismoil qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti kafedrası 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bu maqola hikmatli so‘zlarning tabiatini, shakllanish tarixi haqida ma’lumot beradi. Qolaversa maqol, matal va iboralardan o‘xshash va farqli tomonlarini ochib beradi. Aforizmshunoslarning tadqiqot ishlari ko‘rsatib o‘tilgan va ularning umumiy fikrlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Hikmatli so‘zlar, madaniy meros, maqol, matal, frazeologizm, lingvokulturologiya, aforizm.

Xalqimiz boy ma’naviy merosining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yashab kelayotgan hikmatli so‘zlar, maqol, matal va iboralarni o‘rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish har doim dolzarflik kasb etib kelgan. O‘zbek tilida hikmatli so‘zlar, xalq maqollari, matallari va iboralarni o‘rganish bugungi kunda nafaqat adabiyotshunoslik, tilshunoslikning ham oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Hikmatli so‘zlar (aforizm)lar, maqol va matallar kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongini o‘stiradi, ularni to‘g‘riso‘z, rostgo‘y, mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo‘lishiga o‘rgatadi, kishidagi eng insoniy fazilatlarni targ‘ib etadi. Shuningdek, yozuvchi, shoirlar va notiqnlarning so‘z boyliklarini orttiradi, ularning asarlarini badiiy jihatdan g‘oyat ta’sirli qiladi. Biz nutqimizda ko‘p marotaba aforizmlarga murojaat etamiz. Aforizm (yunoncha aphorismos – hikmatli so‘z) – qisqa, lekin chuqur ma’noli, muallifi aniq gap, hikmatli so‘zlar hisoblanadi. Aforizmning asosiy qoidasi sifatida shuni ta’kidlash joizki, shaklan ixcham, obraz va fikrga boy, his-tuyg‘u, xulosa va holatni aniq va mukammal aks ettirish uchun kuchli emotsional va intellektual ta’sir kuchiga ega bo‘lishi aforizmning eng asosiy xususiyatlardan biridir. Aforizm mavzu jihatdan cheklanmagan, barcha sohalariga oid masalalarni aks ettirishi mumkin. Eng muhimi, u fikrni xalq tiliga yaqin, uning ruhiga mos qilib ifoda etadi. Shuning uchun ham xalqning ruhi va fikr-qarashlarini ifoda etadigan aforizmlar tez ommalashib, umummilliy shiorga aylanib ketadi. Maqol xalqimizning yillar davomida shakllangan og‘zaki nutqining namunasi sanaladi. “Maqol” atamasi arabcha qavlun - gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan. O‘zbek xalq maqollari tilimizda qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi. Maqollardagi so‘zlarni boshqasi bilan almashtirish, biror so‘zni qo‘shish mumkin emas. Maqollar xalqimizning milliy, madaniy–ma’naviy avloddan–avlodga o‘tib kelayotgan merosi hisoblanadi. Bu meros madaniyatimizning ham namunasi sanaladi. Til va madaniyatning o‘zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o‘rganish imkonini beradi. Ammo yoshlarda ko‘p kuzatilgan holat sifatida shuni aytish joizki aforizm va maqolni bir xil atama sifatida ishlatishadi. Maqollar va aforizmlar bir biridan to‘laqonli farq qiladi va ularni lingvokulturologik nuqtayi nazaridan o‘rganish bugungi kun tilshunosligi oldidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Aforizmlarni ilm obyekti sifatida o‘rganish va to‘plash XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Aforizmlarni to‘plash va nashr qilishda missioner N.G.Ostroumovning xizmati kata hisoblanadi. Hikmatli so‘zlarni mustaqil ilmiy janrlarda ham, ilmiy, falsafiy, tarixiy, badiiy asarlarda ham uchratish mumkin. Ba’zan asar boshidan oxirigacha hikmatli so‘zlardan iborat bo‘lishi mumkin (Forobiy). Alisher Navoiyning ayrim asarlari hikmatli so‘zlarga boy (“Nazm ul-javohir”, “Arbain”, “Mahbub ul-qulub” va boshqalar). Qolaversa Mavlono Rumiy ham hikmatli so‘zlar yozish bo‘yicha o‘zining bebaho

merosini qoldirgan. Sharq xalqlari adabiyotida, jumladan, o'zbek adabiyotida hikmatli so'zlarning aksariyati yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahat berish tarzida uchraydi.

Aforizmlarning yangi nashrlari bilan shug'ullangan tadqiqotchilar sifatida B.Sarimsoqov, K.Imomov, va X.Abdurahmonovlarning ishlari ham diqqatga loyiq. B.A.Soatov hikmatli so'zlarning janr xususiyatlari va she'riy xususiyatlarini aniqlagan. X. Sharafiddinova hikmatli so'zlarning tuzilishidagi qofiya va uning funksional-uslubiy xususiyatlariga e'tibor qaratgan. I. Begmurotov, R. A. Latipova, E. V. Ivanovalarning ilmiy tadqiqotlarida folklor aloqalari, jumladan hikmatli so'zlar, maqol va matallar qiyosiy planda ko'rib chiqilgan. Rus tilidagi hikmatli so'zlar V.D. Chernelevaning tadqiqotida qiyosiy aspektida o'rganilgan.

Til madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida o'ziga xos yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy sohadir. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, ikki tildagi bir xil ma'noni ifodalaydigan hikmatli so'zlar aynan bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Bir tildagi aforizm, frazeologizmlarni, maqol va matallarni o'zga bir tilga o'girish ularni muqobili yoki o'xshash ekvivalentlarini topish qiyin. Chunki bular darrov kishining xayoliga kela qolmaydi.

Har bir xalqning aforizmlar zaxirasi o'ziga xosdir. O'zbek tilidagi aforizmlar o'zbek xalqi donishmandligining hosilasi hisoblanadi. O'zbek tilidagi hikmatli so'zlar tasnifi masalasi bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan mavzu hisoblanadi. Aforizmlarning 30 predmetli mavzu guruhi taqdim etilgan: 1) Vatan va vatanparvarlik haqida; 2) mehnat va mehnatsevarlik haqida; 3) ilm va ilmlilik; 4) do'stlik va kelishmovchilik haqida; 5) fan va san'at haqida; 6) donolik va johillik haqida; 7) mardlik va insoniylik haqida; 8) jasorat va qo'rqqoqlik haqida; 9) hushyorlik va ehtiyotkorlik haqida; 10) oila va yaqinlar haqida; 11) sevgi va sadoqat haqida; 12) kattalarni e'zoz qilish haqida; 13) kamtarinlik va tarbiya haqida; 14) qadr-qimmat haqida; 15) mehmon va mehmondorchilik haqida; 16) yaxshi so'z va ezgulik haqida; 17) rostgo'ylik va samimiylik haqida; 18) ehtiyotkorlik va uquvsizlik haqida; 19) tejamkorlik haqida; 20) sabr qanoat, matonat haqida; 21) soflik, poklik haqida; 22) ishonch va umidsizlik haqida; 23) maqtanchoqlik va kibr haqida; 24) ochko'zlik haqida; 25) hayvonot haqida; 26) nasihat haqida; 27) majoziy maqollar; 28) pand-nasihat haqida 29) kambag'allik va muhtojlik: tarixiy o'tmish haqida 30) haqsizlikka qarshi;

Shuni unutmash kerakki, hikmatli so'zlar ularni yaratgan insonlarning donoligini o'zida mujassam etadi. Xalq donishmandligi haqidagi – yirik bir fan hisoblanadi. Buyuk tajribaga ega bo'lgan kishilar unga ega bo'ladilar. Davrining va undan keyingi asrlarning buyuk donishmandi, eramizdan oldingi IV asrning yirik faylasufi Aristotel shunday degan edi: “Donishmandlik ba'zi sabablar va ibtidolar haqidagi fandır... Donishmandlikni, adolat nuqtayi nazaridan ilohiy demoq mumkin va shu bois donishmandlik, birinchi navbatda, tangriga o'xshaydi...”

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hikmatli so'zlar lingvokulturologiyaning obyektini sanaladi. Lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro tutashgan nuqtasini o'rganadi, buning markazida esa hikmatli so'zlar turadi. Asosan ular chuqur ma'noli bo'ladi, tasvirni ifodalamaydi. Aslida aforizmlarni yozish haqiqiy san'at hisoblanadi. Aforizmlardan foydalanish, ularga amal qilish hayotda ko'p yutuqlarga erishishimiz uchun muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma'nolar maxzani . -T.: 2001
2. Koshg'ariy M. "Devonu lug'atit turk" I tom. -Toshkent.: 1960.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -T.: Mumtoz so'z, 2010.
4. Akramov.I.I –2022. —The aphorism and the aphoristic style of communication. Центр научных публикаций
5. Горький А.М. История русской литературы.-М.:1957,-С.38